

DIRIJORLIK SAN'ATINING TARIXI HAMDA UNING RIVOJLANISHI

*O‘z DSMI FMF Cholg‘u ijrochiligi va musiqiy
nazariy fanlar kafedrasi PTCHI 1-bosqich
talabasi Mahmudova Diyoraxon Yusufjon qizi
Ilmiy rahbar O‘z DSMI FMF Cholg‘u ijrochiligi va
Musiqiy nazariy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi
Ne’matov Feruzbek*

Annotatsiya: Ushbu maqolada dirijorlik san’atining paydo bo‘lishi hamda uning tarixi va rivojlanishi borasida, dirijorlikning ijodiy faoliyat jarayoni, san’at sohasida dirijorlik san’atining tutgan o‘rni va ahamiyati, dirijorlikka xos bo‘lgan xususiyatlar hamda bugungi kunda ayni shu soha vakillarining erishgan yutug‘lari va ijodiy ishlari hususida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: dirijor, xo‘r, auftakt, partiya, partitura, orkestr, dinamika, dirijorlik tayoqchasi, battuta, xeyronomiya.

Bir necha asrlardan buyon insoniyat olami musiqaga hamda uning go‘zal ohanglariga maftun bo‘lib kelmoqda, insoniyatning dunyo qarashi va fikrlashi rivojlanib boyigani sayin uning san’ati ham rivojlanib boradi, ustoz-shogird an’analari orqali ijrochilik mahoratlarini egallash borasida ham izlanishlar olib borilmoqda. Bunda musiqiy meros asarlarinig uslublarini ma’naviy tarbiya vositasi sifatida o‘rganish katta ahamiyat kasb etadi va albatta san’atimizning rivoji uchun yana bir qadam hisoblanadi hamda har bir xalq o‘zining san’atini jahon sahnalarida ko‘rishi insonga o‘zgacha shukuh bahsh etadi.

Agar san’at bo‘lmasa hayot nursiz, mantiqsiz, jilosiz va zerikarli bo‘lib qolishi anig‘. San’atimizning eng yosh turlaridan yana biri aynan dirijorlik san’ati deb hisoblasak bu san’at haqida ko‘plab manbalar va ma’lumotlar keltirishmiz mumkin.

Xususan:

Dirijorlik san'ati bu - musiqa ijrochiligining murakkab turlaridan biri hisoblanadi hamda o‘zining chuqur va keng doiradagi imkoniyatlari, mas’uliyati bilan ajralib turadi. Dirijor sozandalar musiqiy asarni uyg‘unlikda hamda bir maromda ijro etishlari, asarni birga boshlab birga tugatishlari, o‘z cholg‘ularini bir maromda chalishlari hamda kuy davomida pauzalarni bir maromda ushlab kuy boshlashlarini ta’minlaydi. Eng asosiy qismi asar talqini, dirijorning bilimi hamda mahorati bilan o‘zaro bog‘liq. Dirijor o‘zining bilim ko‘nikmalari hamda mahoratiga tayangan holda faoliyat olib boradi va bundan tashqari u asar harakterini, mazmun-mohiyatini his qila olishi kerak bo‘ladi. Bir so‘z bilan aytganda orkestr jamoalaridagi sozandalarning asosiy ish quroli cholg‘usi sanalasa dirijorning musiqiy cholg‘usi aynan orkestr sanaladi. Shu sababli drijor har taraflama mukammal bo‘lishi lozim.

Dirijorlik san'ati eng yosh o‘rganilayotgan san’at turlaridan biri hisoblanadi. XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, mustaqil ravishda musiqiy jamoani boshqarish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Uning kelib chiqish bosqichlarining ilk davrlari uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Bizgacha yetib kelgan ma’lumotlarga ko‘ra Qadimgi Misir hamda Qadimgi Gretsiya davridagi datlabki boshqaruvi qo‘l hamda barmoqlarning harakati orqali musiqiy o‘lchovni usul va kuy yo‘nalishini belgilab berishni xeyronomiya deb ataganlar.

Bizga tarixdan ma’lumki, dirijorlikning ilk belgilarini o‘scha davr jamoalarining harakatlarida kuzatishimiz mumkin, misol uchun, jamoalarni bir yerga jamlashda tayoq, qo‘l, kaft harakatlari orqali urib usullar chalish kabi harakatlarda kuzatishimiz mumkin. Ular insonga hos bo‘lgan ruhiy holatni hamda his-hayajon kabi holatlarni usullar asosida harakatlanib, raqsga tusish orqali ta’riflab bergenlar. Bu kabi harakatlarni qo‘llarida tayoq yoki yog‘ochda urib boshqarganlar. Ushbu boshqaruv usullari dirijorlikning ilk ko‘rinishiga asos bo‘la oladi.

XVI asrga kelib dirijorlik tayoqchasidan foydalanishi, nota yozuvining o‘ylab topilishi yangi janrlar opera hamda oratoriyalarning paydo bo‘lishi,

dirijorlik tarixida muxim o‘ringa ega hisoblanadi. XVI asr oxri XVIII asr boshiga kelib opera amaliyotida ikki tizimli dirijorlik klavessinchi va skripkachi - konsertmeyster so‘ngra esa uch tizimli dirijorlik – uchinchi rahbar ijrochilar qarshisida turib, ijroni qo‘l harakatlari va qog‘oz tutami yoki temir cho‘p ushlagan holda boshqarishga o‘tildi. XVIII asr oxriga kelib esa jamoa ijrosini boshqarish bir kishiga topshirilishi bilan yakka mustaqil dirijorlik san’atining vujudga kelishiga asos solindi. XIX asr oxri va XX asr boshlarida konsert sahnalarida, so‘ngra opera teatrlarida ilk marotaba dirijorlar o‘z faoliyatini yurita boshladilar. [2.5-bet]

O‘rta asrlarda dirijorlik san’atining rivojlanish jarayoni cherkovlarda shakllana boshlaydi va bunga misol tariqasida aytishimiz mumkinki, musiqa har doim ibodatning muhim va ajralmas qismi sifatida xizmat qilgan. O‘rta asrlarda katta hurmatga ega bo‘lgan bosh dirijorga uning darajasini ko‘rsatib turuvchi salmoqli hassa taqdim etilardi. Ushbu hassa esa oradan ma’lum vaqt o‘tgandan so‘ng dirijorlik tayoqchasiga aylanadi. Dirijor o‘z mavqeyi bo‘yicha juda muhim o‘ringa ega hisoblangan.

30-40-yillar davomida musiqa dunyosi keskin rivojiana boshladi hamda simfonik orkestrlar qatorida ko‘plab professional xor jamoalari tashkil etildi. Bunda o‘z iste’dodiga ega musiqachi-xormeystrlar, dirijorlik san’atining namoyondalaridan M. Klimov va G. Dmitriyevskiy hamkorlikda, Peterburg xor kapellasining asoschilari bo‘lishgan hamda ulardan so‘ng N. Danilin V. Sokolov, K. Ptitsa va boshqalarning rahbarlik faoliyati dirijorlik san’atining keng rivojlanishiga imkon yaratib berdi.

Dirijorning eng yaxshi hamda asosiy fazilatlaridan biri yaxshi xotira hisoblanadi. Bu borada Nikolay Anosov Balikerov bilan sodir bo‘lgan voqeani misol qilib keltiriladi va bo‘lib o‘tgan voqeaga ko‘ra:

“Yorqin iste’dod egasi Balakirevning dirijorlik fazilatlari uning zamondoshlari hisoblangan bastakorlarning rus musiqa shinavandalari orasida o‘z mavqeyiga ega bo‘lgan. Balakirev tomonidan Mixail Ivanovich Glinkaning “Ruslan va Lyudmila” operasini sahnalashtirganligi ham bu borada muhim

ahamiyatga ega hisoblanadi. Bu borada qiziq bir voqea yuz beradi. Premyera vaqtida “Ruslan va Lyudmila” partiturası g‘oyib bo‘ladi va umuman topilmaydi, shunda Balakirov o‘zining qobiliyatiga tayangan holda ushbu spektakl muvaffaqiyatli yakun topishini ta’minlab bera oladi. Partituraning yo‘qolgani spektakl muvaffaqiyatiga zarracha putur yetkaza olmaydi chunki, Balakirev butun operani yoddan bilgani uchun premyerani bemalol o‘tkaza oladi”.

Yaxshi dirijor bo‘lib yetishish uchun mukammal bilmga ega bo‘lishi zarur eng avvalo haqiqiy musiqachi bo‘lish kerak. Dirijorlik san’atini egallash uchun qobiliyat hamda umumiyl tushunchalar ham muhim omillardan biri hisoblanadi.

Dirijorlarga xos yana bir muxim omil shundan iboratki, ular bir vaqtning o‘zida ham ijrochi va ijrochi jamoaning boshqaruvchisi raxbari sifatida faoliyat yuritadi. Dirijorning zimmasiga yuklatilgan vazifalar o‘ziga xos mas’uliyatga ega hisoblanadi. Pultga chiqqan dirijor, o‘ziga xos tashqi ko‘rinishga hamda o‘zini tutishiga, ijrochi va tomoshabinlarning diqqat e’tiborini o‘ziga jalb qila olish hususiyatlariga ham ega bo‘lishi katta ahamiyat kasb etadi. Dirijor ijrochilar bilan birga ommaviy ijroga qadar bo‘lgan vaqt mobaynida barcha mashg‘ulotlarni jamoa bilan birgalikda olib boradi.

Asosiy ijro konsert paytidagi ijro hisoblanadi, dirijor ijrochi jamoani birlashtirib turadi, ruxlantiradi, hamda shaxsan badiiy asar ijrosi uchun mas’ul shaxs hisoblanadi. Dirijor ijrochi jamoa bilan yuz, ko‘z, bosh, qo‘l, gavda harakatlari, va imo-ishoralari orqali ijroni boshqarib boradi.

Xulosa o‘rnida aytib o‘tish lozimki har bir shakllanib borayotgan yosh avlod o‘zi tanlagan kasbiga, o‘z mehnati hamda kasbiga bo‘lgan mehri orqali oliy natijalarga erishadi. O‘zining qobiliyati orqali san’atning qaysi bir yo‘nalishidan yursa ham undan albatta mukammal bilim sohibi bo‘lishi talab etiladi. Ana o‘shandagina undagi his qilish tuyg‘ulari hamda bilimlari uning mehnati orqali shakllanib boraveradi va eng yaxshi natijalarga erishib boraveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.** Dirijorlik Shohida Mahkamova (Pedagogika oliy ta’lim muassasalarining talabalari uchun o‘quv qo‘llanma) Toshkent 2020-yil.
- 2.** Dirijorlik S.S.Malikova, O.A.Vasilchenko, F.T.Bagirova. Toshkent 2018-yil.
- 3.** Dirijorlik Ergash Toshmatov (o‘quv qo‘llanma) Toshkent 2008-yil.
- 4.** Dirijorlik asoslari. Dirijorlik. Jalolxon Mamatov (o‘quv qo‘llanma) Qo‘qon 2023 yil.
- 5.** Dirijorlik I qism Mansur Mamirov, Dadamirza Baltabayev (metodik qo‘llanma) Toshkent 2010-yil.
- 6.** O‘zbekiston dirijorlari K.T.Azimov T.Keblerg-Osiyo 2001-yil.